

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ARTTEKNOLOGIYA INNAVATSION METOD SIFATIDA

**Mamatova Husnora Eshquvatovna**

MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim”  
kafedrası katta o’qtuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada art-terapiyaning maktabgacha ta’lim jarayonidagi psixologik-pedagogik ahamiyati, uning bolaning hissiy, ijtimoiy, intellektual va ijodiy rivojlanishiga ko’rsatadigan ta’siri yoritilgan. Shuningdek, art-terapiya turlarining ta’lim jarayoniga tatbiqi va ularning samaradorligi haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so’z:** Art, ijtimoiy, intellektual, ilmiy, texnologiya, san’at, ruhiy, bosim, material, yuksalish, innovatsion, kompetensiya, metod.

**Аннотация:** В статье рассматривается психолого-педагогическое значение арт-терапии в образовательном процессе дошкольного учреждения, её влияние на эмоциональное, социальное, интеллектуальное и творческое развитие ребёнка. Представлены научно обоснованные представления о применении видов арт-терапии в образовательном процессе и их эффективности.

**Ключевые слова:** Искусство, социальный, интеллектуальный, научный, технологический, художественный, духовный, давление, материальный, рост, инновационный, компетентность, метод.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu jarayonda bolaga ta’sir qiluvchi pedagogik texnologiyalar orasida **art-terapiya** alohida o’rin tutadi. Art-terapiya — bu rasm chizish, loy ishlash, kollaj, ranglar bilan tajribalar, qo’l mehnati va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali bolaning hissiy va psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan metoddir. U nafaqat muammolarni bartaraf etadi, balki ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orasida art-terapiya usuli pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, bolalarda ijobiy emotsional muhit yaratish va ularning ichki dunyosiga kirish imkoniyatini beruvchi eng kuchli metodlardan biri hisoblanadi. Art-terapiya — bu rasm, rang, shakl, qog’oz, loy, qum kabi ijodiy vositalar orqali bolada hissiy bo’shshish va ruhiy yengillik yaratish jarayonidir.

Art-terapiyaning pedagogik ahamiyati:

1. Hissiy holatni tartibga solish
2. Ijodkorlik va tasavvurning rivojlanishi
3. Nutq va kognitiv rivojlanishga ta’siri
4. Ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish
5. Xulq-atvorni korrektsiyalash
6. O’ziga ishonch va motivatsiyani oshirish

Art-terapiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo’shadi. U hissiy muvozanatni ta’minlaydi, ijodkorlikni oshiradi, muloqot va nutqni rivojlantiradi, shuningdek, xulq-atvorni tuzatishda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi. Eng muhimi — bola o’zini erkin, xavfsiz va quvonchli his qiladigan rivojlantiruvchi muhit yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko’pincha o’z his-tuyg’ularini so’z bilan ifoda eta olmaydi. Art-terapiya esa rasm chizish, loydan yasash, qum bilan o’ynash orqali bu hislarni tashqi obrazlar

ko'rinishida "chiqarish" imkonini beradi. Natijada qo'rquv, tashvish, tajovuzkorlik va bezovtalik kamayadi. Bu esa bola psixikasida emotsional muvozanatni shakllantiradi. Ijodkorlik va tasavvur rivojlanishida Art-terapiya bolaning tasavvurini, obrazli fikrlashini, ranglar orqali o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Rasmda rang tanlash, shakl yaratish, detal qo'shish jarayoni bolaning ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Bu jarayon keyinchalik maktab ta'limida ham muhim bo'lgan ijodiy fikrlashning shakllanishiga asos yaratadi. Nutq va kognitiv rivojlanishga ta'siri Kichik motorikaning rivojlanishi nutq apparati bilan bevosita bog'liq. Rasm chizish, kesish-yopishtirish, loy bilan ishlash bola barmoqlari harakatini rivojlantirib, nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning chizgan rasmini sharhlashi, hikoya qilib berishi og'zaki nutqni, lug'at boyligini va mantiqiy izchillikni mustahkamlaydi. Bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda guruh bo'lib ijod qilish bolalarda ijtimoiylashuv jarayonini kuchaytiradi. Ular bir-biriga yordam beradi, fikr almashadi, birgalikda qaror qabul qiladi. Bu esa muloqot, hamkorlik, mas'uliyat kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Xulq atvorni karreksiya qilish tuzatishda ham art texnologiyaning o'rni beqiyos. Tarbiyalanuvchilarda tajovuzkorlik, uyatchanlik, haddan ziyod shovqinlilik kabi muammolarni yumshatishga yordam beradi. Rasmda salbiy energiya "chiqarilib yuborilishi" bolaning xulqida ijobiy o'zgarishlar yuzaga keltiradi. Tiklangan emotsional muhit esa intizomni yaxshilaydi. Bola yaratgan ishlarining namoyish etilishi, maqtov eshitishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Har bir yangi ijodiy topshiriq mustaqil qaror qabul qilishga, tanlashga o'rgatadi. Bu esa shaxsiy o'sish va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Art-terapiya turlari va ularning maktabgacha ta'limda qo'llanishi:

-Rasm-terapiya. Eng ko'p qo'llaniladigan usul. Bo'yoqlar, qalamlar, guash va akvarel yordamida bola o'z his-tuyg'ularini tasvirlaydi. Bu jarayon bolaning ichki kechinmalarini aniqlash va yumshatishda samarali.

-**Loy-terapiya.** Loy bilan ishlash bolaning sensor rivojlanishiga xizmat qiladi. Loyning yumshoqligi, shakl o'zgaruvchanligi bolada nafaqat emotsional bo'shishni, balki motorika rivojini ham ta'minlaydi.

-**Qum-terapiya.** Qumli muhit bolani tinchlantiradi, ichki qo'rquvlarni kamaytiradi. Qumda jonivorlar, uylar, daraxtlar yasash bolaning hayotiy tajribasini aks ettiradi va psixologik ahvolini yengillashtiradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rubin, J. A. Art Therapy: An Introduction. New York: Routledge, 2016.
2. Malchiodi, C. A. The Art Therapy Handbook. New York: Guilford Press, 2012.
3. Lowenfeld, V., & Brittain, W. L. Creative and Mental Growth. Macmillan, 1987.
4. Mahkamova N., Jo'rayeva M. *Maktabgacha ta'lim menejmenti va psixologiyasi.* – Toshkent, 2020.
5. Qodirova R., Hasanboyeva O. Bola psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
6. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
7. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining menejerlik ko'nikmasini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar// Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'» № 1/1 N kis — 2025 B 360-368